

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Parazitologiya» kafedrası v.f.f.d., PhD assistenti D.I.Azimovning Veterinariya diagnostikasi va oziq -ovqat xavfsizligi fakulteti 60840300 – veterinariya sanitariyasi ekspertizasi bakalavr yo‘nalishi 202-guruh talabalari uchun tayyorlangan “Baliq va asalari kasalliklari” fanidan “Asalarilarning nozematoz, varroatoz kasalliklari ” nomli mavzuda ochiq dars (amaliy mashg‘ulot) ishlanmasiga

### TAQRIZ

Ushbu dars ishlanmasi “Baliq va asalari kasalliklari” fanidan 60840300 – veterinariya sanitariyasi ekspertizasi bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun namunaviy dastur va ishchi o‘quv dasturi (sillabus) asosida yozilgan. Mavzu texnologik xarita, darsning maqsadi, amaliy mashg‘uloti uchun kerakli jihoz va asbob-uskunalar, unda qo‘llanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati, topshiriq vazifalari, mazmuni, Assiment texnikasi, FSMU metodlari va aqliy xujm savollari mavjud. Asalarilarning parazitlar kasalliklari sistematik asoslari, morfofiziologik xususiyatlari va biologiyasi aniq bayon qilingan. Asalari nozematoz kasalligi hamda varroatoz kasalliklarining asalarichilik xo‘jaliklaridagi iqtisodiy zararlar va ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklar batafsil bayon etilgan.

Dars ishlanmasi ixcham, sodda tushunarli tilda yozilgan bo‘lib, talabalar o‘zlashtirishi uchun juda qulaydir. Mavzuga oid rasm va jadvallar o‘z o‘rnida izohi bilan berilgan.

Mavzuni to‘liq yoritib, oddiy va engil tushuncha hosil qilishiga erishgan. Nozematoz va Varoatoz (invazion kasalliklar) haqida keltirgan ma‘lumotlarida asalari oilalarida keltiratigan iqtisodiy zararlari, kasallik qo‘zg‘atuvchilarining sistematik tavsifi, organ va sistemalarining tuzilishi, ular orasida alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega turlari, haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Ayni paytda ushbu dars talabalarda mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka paydo qilib, bo‘lajak mutaxassislarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Assistenti D.I.Azimova tomonidan 60840300 – veterinariya sanitariyasi ekspertizasi bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha “Baliq va asalari kasalliklari” fanidan “Asalarilarning nozematoz, varroatoz kasalliklari” nomli mavzusidagi ochiq dars (amaliy mashg‘ulot) ishlanmasini ijobiy baholayman.

“Parazitologiya” kafedrası  
v.f.f.d., professor



A.S.Daminov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Parazitologiya» kafedrası PhD assistenti D.I.Azimovning Veterinariya diagnostikasi va oziq -ovqat xavfsizligi fakulteti 60840300 – veterinariya sanitariyasi ekspertizasi bakalavr yo‘nalishi 202-guruh talabalari uchun tayyorlangan “Baliq va asalari kasalliklari” fanidan “Asalarilarning nozematoz, varroatoz kasalliklari ” nomli mavzuda ochiq dars (amaliy mashg‘ulot) ishlanmasiga

### TAQRIZ

D.I. Azimova tomonidan tayyorlangan ushbu amaliy mashg‘ulot darsi ishlanmasi “Baliq va asalari kasalliklari” fanning namunaviy dasturi va fanning ishchi dasturi (sillabusı) rejasiga mos keladi, amaliy mashg‘ulot darsi matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Unda tayanch so‘zlar va iboralar xamda foydalanilgan adabiyot ro‘yxatlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, talabalar o‘rganish uchun lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va amalaka tarbiya metodlari, tamoyillari tarbita turlari bosqichma - bosqich ko‘rsatib berilgan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va topshiriqlari, amaliy mashg‘ulotning o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan yangi texnologiyalar (aqliy hujum, klaster, kichik guruhlarda ishlash) shuningdek darsda axborot texnologiyalaridan foydalanilib amaliy mashg‘uloti uchun taqdimot qilingan.

Mazkur dars ishlanmasi asalarilar *nosema (spora)* va *varoa (kana)* ning sistematikasi batafsil berilgan, anatoma - morfologiyasi aniq va tushunarli ravishda bayon etilgan va biologik rivojlanishlari kerakli ma‘lumotlar bilan boyitilgan. Bundan tashqari ishlanmada mavzu yuzasidan eng so‘ngi yangi ma‘lumotlar, qiziqarli fikrlar, dalillar keltirilgan.

Umuman olganda assistent v.f.f.d. (PhD) D.I.Azimova tomonidan tayyorlangan ushbu dars ishlanmasi hozirgi zamon ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi va ta‘lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

“Veterinariya sanitariya ekspertizasi”  
kafedrası dotsenti, v.f.f.d.



Rasulov O‘I